

Fan:Tarix

Sana: 19.02.2013

Sinf:6-“G”

Mavzu:Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi

Maqsad:

- o'quvchilarga Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish;

Dars turi:yangi tushuncha,bilimlarni shakllantirish.

Dars metodi:Tarmoqlar (klaster) uslubi.

Dars jahozi:darslik, dunyoning siyosiy xaritasi, texnik vosita

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

O'quvchilarni darsga jalb etish,tezkor o'rganilgan raqamlar bilan 1,2,3 raqamlar bilan sinf o'quvchilarni guruhlarga ajratish. 5 daqiqa

2. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Bu o'rinda tarmoqlar uslubidan foydalilanadi. 10 daqiqa

Mavzu: O'rta Osiyo aholisining yunon- makedon istailochilarga qarshi kurashi.

Har bir o'quvchiga o'tilgan mavzuning asosiy jihatlarini yoritish uchun klaster tuzish topshiriladi.

Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini tashkil etishga , mantiqiy fikrlashga o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab oladi.

Quyidagilar tuzib chiqiladi:

**O'rta Osiyo aholisining
yunon- makedon
istailochilarga qarshi kurashi.**

**Makedoniyalik
Aleksandr**

**O'rta Osiyo
xalqlari qurolyarog'I va harbiy
san'ati**

**Maroqandaning
bosib olinishi**

-mil. avv. 336-yilda Makedoniya podshosi bo'lgan
- mil.avv. 334-yilda Sharqqa yurish boshlagan, u 11 yil davom etgan
- Yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron, va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi

-jangchilar janggasovut kiyib kirganlar, boshlarida dubulg'a bo'lgan;
-Xanjar va qilich bilan qurollanganlar;
-oybolta va nayza ishlatganlar, kamon o'qi va chopqilar temir va jezdan yasalgan.

-mil. avv 329-yilda Makedoniyalik Aleksandr Maroqandni egallaydi va Srdaryo sari yurdi.
-Sog'diyona xalqi qo'zg'olon ko'tardi unga Spitamen boshchilik qildi.

III. Yangi mavzuni tushuntirish 7 daqiqa

Reja:a

1. O'rta Osiyo salavkiylar davlati tarkibida.
2. Yunon-Baqtriya davlati
3. Madaniyatning rivojlanishi.

Miloddan avvalgi 323- yil 13-iyunda Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U yaratgan davlat 3 qismga: Makedoniya, Misr va Suriyaga bo'linib ketdi. Uzoq davom etgan o'zaro urushlardan keyin mil. avv.312-yilda Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri Salavka Bobil davlati hukmroni bo'ldi. Salavka davlati tarkibiga Mesopotamiya, eron, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona kirar edi. Yunon-makedon istilolari tufayli izdan chiqqan turmush tarzi So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyonada asta-sekin tiklana boshladi. Bu yerlarda yangi manzilgohlar, shaharlar bunyod etildi, savdo-sotiqlig, dehqonchilik, hunarmandchilik rivojiana boshladi.

Mil. avv III asr o'rtalarida Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Diodot- mingta Baqtriya shahri hukmdori o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlandi.

Yunon-Baqtriya davlati 120 yil hukmronlik qildi. Shu davr mobaynida uning iqtisodiyoti va madaniyati yuksaldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiqlig rivojlandi. Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan. Mil. avv. 140-130 yillarda ko'chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.15 daqiqa.

Darsning bu bosqichi o'quvchilarning matn ustida ishlab, ulardagagi eng muhim fikr va ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi. Bu bosqichda **test usulidan** foydalaniladi.

1. Quyidagilardan qaysi biri Salavka davlati tarkibiga kirmaydi?

- A) Eron
- B) Baqtriya
- C) Iroq
- D) Parfiya

2. Maroqanda, Marg'iyona Antoxiysi, Termiz Ga aylandi.

- A) madaniyat markazi
- B) sog'lomlashtirish markazi
- C) savdo markazi
- D) donishmandlar markazi

3. Diodotning merosxo'rlari kim?

- A) Yevtidem, Dimetriy
- B) Yevtidem, Salavka
- C) Antiox, Salavka
- D) Yevtidem

4. Mil. avv 250-yilda Baqtriyaga qaysi davlat raqib bo'lган?

- A) Marg'iyona
- B) So'g'diyona
- C) Parfiya

- D) Baqtriya
- 5. Karvon yo'li qayergacha cho'zilgan?
- A) Salavkiyadan Baqtriyagacha
- B) Maroqanddan Farg'onagacha
- C) Xitoydan Hindistongacha
- D) Diodotdan Yevtidemgacha

V.O'quvchilarni baholash: Hisobchi yordami orqali umumiy ballar e'lon qilinadi. 3 daqiqa

VI. Uyga vazifa. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi mavzusining diniy e'tiqod, me'morchilik va san'at rejalarini asosida tayyorgarlik ko'rish, internet axborotlarini olib kelish. 5 daqiqa